



Volume 1, Issue 1(18), 2024

# Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

**Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Safarovich**

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Deputys Chief Editor:**

**Sodikov Khamid Makhmudovich**

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

**Orishev Jamshid Bahodirovich**

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Members of the editorial board:**

**Ubaydullaev Sadulla**, dotsent

**Ismailov Tuychi Djabbarovich**, dotsent

**Kholmatov Pardaboy Karabaevich**, dotsent

**Umarov Rakhim Tojievich**, dotsent

**Murtazaev Melibek Zakirovich**, dotsent

**Abduraimov Sherali Saidkarimovich**, dotsent

**Tugalov Farkhod Karshibayevich**, dotsent

**Taylanov Nizom**, senior teacher

**Tagaev Khojamberdi**, senior teacher

**Alibaev Turgun Chindalievich**, PhD

**Yusupov Mukhammad Makhmudovich**, dotsent

**Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich**, PhD

**Irmatov Fozil Muminovich**, PhD

**Editorial Representative:**

**Jamshid Orishev**

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK  
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali  
Журнал “Физико-технологического образование”  
“Journal of Physics and Technology Education”

**Indexed By:**



**Published By:**

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

**MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

<i>№</i>	<i>MUALLIFLAR / AUTHORS/ АВТОРЫ</i>	<i>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</i>	<i>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</i>
1	<i>Qurbonov A.R. Ismoilov S.</i>	<i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>	<i>5-10</i>
2	<i>Utambetov B. T., Qalmuratova X. A., Ibraymova S. B.</i>	<i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>	<i>11-17</i>
3	<i>Ibroximov M. A., Axmadjonova S. A.</i>	<i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>	<i>18-24</i>
4	<i>Xolmatov Pardaboy Qorabekovich</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>	<i>25-29</i>
5	<i>Jabborov A. Xolmatov P.Q.</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>	<i>30-38</i>
6	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>	<i>39-42</i>
7	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Uzuq chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>	<i>43-48</i>
8	<i>Umarov R.T., Isoqov Sh.T.</i>	<i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>	<i>49-53</i>
9	<i>Umarov R.T., Nazarov O.</i>	<i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>	<i>54-58</i>
10	<i>Sharipov A.A., Jaloldinova S.X. Qalmuratova X.A., Islomova N.Sh.</i>	<i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	<i>59-62</i>
11	<i>Po‘latov J.H., Alqorov Q.X.</i>	<i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i>	<i>63-66</i>
12	<i>Eshmatova Sh.T., Alqorov Q.X.</i>	<i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>	<i>67-70</i>
13	<i>Orishev J.B., Jumanova S.H.</i>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>	<i>71-78</i>
14	<i>Ortiqova O.Sh., Aqbo‘tayeva B.M.</i>	<i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>	<i>79-82</i>

<b>15</b>	<b><i>Xolmatova M.Q, Alqorov Q.X.</i></b>	<b><i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning ahamiyati</i></b>	<b>83-88</b>
<b>16</b>	<b><i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i></b>	<b><i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik xususiyatlari</i></b>	<b>89-91</b>
<b>17</b>	<b><i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i></b>	<b><i>Kengayuvchan koinotning kosmologik modellari</i></b>	<b>92-94</b>
<b>18</b>	<b><i>Tursunboyev O.V., Quvondiqov M.K., Boboqulova Z.V.</i></b>	<b><i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum” strategiyasi asosida muammoli masalalarni tahlil qilish</i></b>	<b>95-99</b>
<b>19</b>	<b><i>Ortiqova O.Sh., Xudoyqulova Z.M.</i></b>	<b><i>Kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi</i></b>	<b>100-105</b>
<b>20</b>	<b><i>Abdirayimova Dilnoza Azamat qizi</i></b>	<b><i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga oid pedagogik jarayonlar</i></b>	<b>106-111</b>

## O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TEXNIKANING AHAMIYATI

*Utambetov Baxadir Turdimuratovich, Qalmuratova Xurliman Arislanbayevna,  
Ibraymova Saxiyat Bisenbayevna*

*Nukus DPI, Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o‘qitish kafedrası assistent  
o‘qituvchilari, Nukus sh, Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
e-mail:baxadirturdimuratovich@gmail.com*

***Annotasiya.** Maqolada o‘qituvchilar faoliyatida pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashga oid nazariy ma‘lumotlar qisqacha bayon qilinib, uni ta‘lim jarayonida foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Pedagogik texnologiya komponentlari, tarkibiy qismlari, shakllantirish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi. Bu har bir pedagog ta‘lim tarbiya jarayonida qo‘llanishida xizmat qiladi.*

***Tayanch so‘zlar:** pedagogik texnika; imo–ishora; ma‘noli qarash; tarbiyalanuvchi obyekt; integratsion usullar; ma‘naviy va estetik qiyofa; kommunikativ malakalar; pedagogik ijodkorlik; o‘qituvchining anatomik–fiziologik xususiyati; ijobiy tarbiyaviy ta‘sir; o‘qitish samaradorligi.*

***Аннотация.** В статье кратко описаны педагогические технологии и их применение в работе педагогов, а также даны рекомендации по их использованию в образовательном процессе. Обсуждаются компоненты, компоненты и способы формирования педагогической технологии. Он служит каждому педагогу в процессе образования.*

***Ключевые слова:** педагогическая техника; жест; осмысленное видение; образовательный объект; методы интеграции; духовный и эстетический внешний вид; коммуникативные навыки; педагогическое творчество; анатомо-физиологическая характеристика учителя; положительное образовательное воздействие; эффективность обучения.*

***Abstract.** The article briefly describes pedagogical technologies and their application in the work of teachers, and also provides recommendations for their use in the educational*

*process. The components, components and ways of forming educational technology are discussed. It serves every teacher in the educational process.*

**Key words:** *pedagogical technology; gesture; meaningful vision; educational facility; integration methods; spiritual and aesthetic appearance; communication skills; pedagogical creativity; anatomical and physiological characteristics of the teacher; positive educational impact; effectiveness of training.*

Pedagogik texnika – o‘qituvchining nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali o‘quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir.

Pedagogik texnikaga A.S.Makarenko quyidagicha ta’rif beradi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin”.

Pedagogik texnikaning asosiy komponentlari:

1. O‘qituvchining o‘zini boshqara olishi.
2. Shaxs va jamoaga ta’sir eta olishi.
3. Pedagogik muloqotni o‘rnatish.
4. Diqqatni jalb etish usullari.

Yakka shaxs va jamoaga ta’sir qilishning ikki usuli mavjud: “ishontirish usuli” va “yoqish usuli”. Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin. Pedagogik texnika – har bir ta’lim oluvchi va jamoaga ta’sir

o‘tkazishda samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar, usullar majmuasi.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim–tarbiya jarayonida o‘z–o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o‘z o‘rnida qo‘llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruh ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o‘qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma’lum bir reja asosida o‘z oldiga qo‘yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta’lim muassasasida va o‘quvchilar jamoasida ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Pedagogik mahoratni oshirishda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi bilan

belgilanadi. Shu bilan birgalikda ta’lim jarayonini boshqarish mutaxassislik fani, uni o’qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi. Bugungi kunda davlatimiz ta’limi sohasi oldiga qo’yayotgan vazifalarning bajarilishi ko’p jihatdan o’qituvchiga bog’liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha’ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo’shayotgan hissasining salmog’i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o’z mehnatining salmog’i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi.

O’qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko’ra ham ko’proq o’z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog’liqdir. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o’qituvchining o’rni beqiyosdir. O’qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o’qituvchi bo’lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o’zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o’qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g’oyalar bayon etiladi

**Pedagogik texnikani shakllantirish yo’llari.** Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o’zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo’lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo’yicha maxsus bilimlarga ega bo’lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o’zlashtirishda o’qituvchi ta’lim oluvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko’ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo’lishi nihoyatda muhimdir.

“Pedagogik texnika” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

- 1) pedagogning o’z diqqati hamda ta’lim oluvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;
- 2) pedagogik faoliyatda jarayonning, ta’lim oluvchilar harakatining sur’atini his qilish.



O’qituvchi faoliyatida uning pedagogik texnikaga egaligi quyidagilarda namoyon bo’ladi: O’qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o’zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavgani to’g’ri tuta bilishi, yig’inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, ta’lim oluvchilarga nisbatan e’tiborida yaqqol aks etadi. Pedagogik jarayonda o’qituvchi yuzini o’rinsiz, qo’pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo’l qo’ymasligi, imo-ishoralarning sun’iy bo’lishidan saqlanishi, ma’nosiz bo’lishiga yo’l qo’ymasligi zarur. Zero, bularning barchasi o’qituvchining ta’lim oluvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh o’qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, ta’lim oluvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog’oz solingan yig’ma jildlarni qaerga, qanday qo’yishi, xona bo’ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, ta’lim oluvchi, talabalar bilan muloqotda o’zini qanday tutishi katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur. Vazmin, xushmuomala, o’ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq ta’lim oluvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o’qituvchi, eng avvalo, o’z hissiy holatlarini, tuyg’ularini boshqara olishi kerak.

Pedagogning ta’lim oluvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta’lim muassasasi va yuqori boshqaruv organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa jismoniy toliqishni, ruhiy zo’riqishni, o’z-o’ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o’qituvchining nutqi qat’iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko’zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo’llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o’qituvchi o’zini dars boshlanishidan avval ta’lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan turli salbiy holatlarga o’zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi, imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

O‘qituvchi pedagogik jarayonga o‘zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

✓ o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga ishonish; xushmuomala bo‘lish va kelajakka ishonch bilan qarash;

✓ o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo‘riqishini bartaraf etish, qomatni rostdash, harakatlarni to‘g‘rilash, nutqning ravon, aniq bo‘lishiga e’tibor qaratish va to‘g‘ri nafas olishni o‘zlashtirish);

✓ aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o‘zaro uyg‘unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o‘qish, yaqinlar, do‘stlar bilan hazil-mutoybani tashkil etish);

✓ pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli, samarali kechishiga o‘zini o‘zi ishontirish; kasbiy faoliyatni katta ishtiyoq, ko‘tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish;

✓ turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, ta’lim oluvchilar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta’sir etishiga yo‘l qo‘ymaslik;

✓ salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening va avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o‘zlashtirish.

Ruhiy barqarorlikka erishish muayyan shartlar asosida kechadi. Bu o‘rinda V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ta’kidlaydi: qosh-qovoqni uyub yurmaslik; boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko‘rsatmaslik; hazil-mutoyba moyil bo‘lish; xushmuomala bo‘lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

Demak, pedagogik texnika o‘qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig‘indisiki, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining kasbiy yo‘nalishining boshlanishidayoq ko‘pgina xatolardan holi bo‘lishda, talabalarga ta’lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Utambetov, B. (2022). Theoretical basis for the development of vocational guidance in secondary schools. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 676-680.
2. Qalmuratova, X., & Utambetov, B. (2023). Using the Linux Operating System and its Capabilities in Technology Education. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(5), 166-169.

